

I. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (keyinchalik matnda O'zDJTU) 1992 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1992 yil 12 maydagi 401-raqamli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 15 iyun'dagi 280-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining 1992 yil 18 iyundagi 214\182-raqamli qo'shma buyrug'i asosida tashkil qilingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tasarrufiga kiradi.

2. O'zDJTU chet tillari bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining respublika bazaviy ta'lim va ilmiy-metodik davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanib, oliy ta'limning asosiy va qo'shimcha ta'lim Dasturlarini bajarish bo'yicha ta'lim faoliyati bilan shug'ullanadi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq o'quv-pedagogik va ilmiy-metodik, shuningdek boshqa faoliyatni amalga oshiradi hamda ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi.

3. O'zDJTU o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayorlash milliy dasturi, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari va mazkur Ustavga amal qiladi.

4. O'zDJTU yuridik shaxs hisoblanadi. Operativ boshqaruvida o'ziga xos maxsus mol-mulkka ega va ushbu mol-mulk bo'yicha o'z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o'z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirishi, zimmasiga majburiyat olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa shu jumladan valyuta bo'yicha hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga, shtamplar va boshqa rekvizitlarga ega.

O'zDJTU joylashgan manzil: 100138 Toshkent sh., Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li, G-9a mavzesi, 21 uy.

O'zDJTuning o'zbek, rus va ingliz tillaridagi rasmiy to'liq (qisqa) nomi:

- O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O'zDJTU);
- Uzbekskiy gosudarstvennyy universitet mirovyykh yazykov (UzGUMYA);
- The Uzbekistan State University of World Languages (UzSWLU)

II. Universitetning asosiy vazifalari

5. O'zDJTuning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsning intellektual, madaniy va ma'naviy-axloqiy kamol topishiga bo'lgan ehtiyojlarini oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ma'lumot olishi orqali erishishni qondirish;
- har tomonlama rivojlangan va sodiq shaxsni, mustaqil davlat fuqarosini, o'z Vatani fidoyisi, xalq, jamiyat va oila oldidagi o'z mas'uliyatini his qiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, halq an'analarini boyituvchi va mustahkamlovchi, Vatanimiz kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qiluvchi etib shakllantirish;
- ilmiy-pedagogik xodimlar va ta'lim oluvchilarning tadqiqotlari va ijodiy faoliyatlari orqali fanni taraqqiy ettirish, olingan natijalardan ta'lim jarayonida foydalanish;
- iqtisodiyotning muvofiq sohalaridagi oliy ma'lumotli mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- jamiyatning axloqiy, madaniy va ilmiy qadriyatlarini saqlash va boyitish;
- aholi o'rtasida bilimlarni tarqatish, uning ma'naviy-ma'rifiy va madaniy darajasini ko'tarish.

III. O'quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlarning sub'ektlari, ularning huquq va majburiyatlari

a) Talabalar:

6. O'zDJTU rektorining buyrug'i bilan o'qishga qabul qilingan shaxs O'zDJTuning talabasi hisoblanadi. Talabaga talabalik guvohnomasi hamda reyting daftarchasi beriladi.

O'zDJTUGa qonunchilikda belgilangan tartibda umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ma'lumotiga ega bo'lgan shaxslar arizalariga binoan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga talabalarni qabul qilish tartibi va qoidalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan test sinovlari natijalariga ko'ra to'plangan ballarning reyting tizimi bo'yicha amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalariga qabul barcha uchun (ham grantlar, ham to'lov-kontrakt bo'yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, test sinovlarida eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarning davlat grantlari bo'yicha birinchi navbatda qabul qilinish huquqi ta'minlanadi. Qolgan abituriyentlar test ballari reytingi asosida belgilangan to'lov-kontrakt kvotalari doirasida qabul qilinish huquqiga egadirlar. Qonunchilikka muvofiq test sinovlarisiz muayyan imtiyoz asosida ham o'qishga qabul qilish kafolatlanadi.

7. O'zDJTuning talabalari quyidagi huquqlarga ega:

- fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar yutuqlariga mos keluvchi bilimlar olish;

- oliy ta'lim muassasasi axborot resurs markazida mavjud bo'lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta'lim vositalaridan belgilangan tartibda bepul foydalanish;
- bepul maslahatlar va yo'l-yo'riqlar olishga;
- auditoriyalar, ta'lim jarayoniga oid vositalardan o'rnatilgan tartibda bepul foydalanish;
- ta'lim jarayoni samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish yuzasidan o'z taklif-mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini belgilangan tartibda ta'lim muassasasi, dekanat va kafedra raxbariyatiga bildirishga va ularni ko'rib chiqilishini talab qilish;
- oliy ta'lim muassasasi va fakul'tet miqyosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarda ishtirok etish;
- ilmiy tadqiqot ishlarida va ilmiy konferentsiyalarda qatnashishga va ularning natijalarini nashr etishga va bu haqda axborotlar berish;
- oliy ta'lim muassasasida qonuniy ravishda faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish va ular ishida qatnashish.

Talaba sifatli va yuqori saviyada bilim olishi, tanlagan ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishish uchun zarur bo'lgan qonun xujjatlariga zid bo'lmagan boshqa huquqlardan foydalanishga haqlidir.

Talaba o'z huquqlarini suiste'mol qilmasligi, bu huquqlardan o'zga shaxslar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi shart.

8. Davlat grantlari bo'yicha va to'lov-kontrakt asosida o'qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan holdagi shaklida ta'lim olayotgan talabalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib va miqdorda stipendiya bilan ta'minlanadilar.

Talabalar tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi va Beruniy, Ibn Sino, Navoiy va Ulug'bek nomidagi Davlat stipendiyalari, shuningdek, o'qishga yo'llagan yuridik va jismoniy shaxslar tayinlagan stipendiyalarni olish huquqiga egadirlar.

9. Harbiy xizmatni o'tash, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug'ish, shuningdek bolalarni parvarish qilish ta'tillari davrida talabaga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi xamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2010 yil 6 avgustda 312 va 19-son qo'shma qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalariga akademik ta'til berish to'g'risidagi Nizom asosida akademik ta'til berilishi mumkin.

10. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq kunduzgi o'quv shaklida ta'lim olayotgan talabalarga oliy ta'lim muassasasida o'qiyotgan vaqti davomida harbiy xizmatga chaqirish muddatini kechiktirish imkoni beriladi.

11. Oliy ta'lim muassasasining talabalar turar joyiga muhtoj talabalar oliy ta'lim muassasasining talabalar turar joylaridan sanitariya me'yorlari va qoidalariga javob beradigan joy bilan ta'minlanadi. Talabalar turar joylarida talabalarga

kommunal-maishiy xizmatlar uchun to'lovlarni inobatga olib, oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi. Turar joyga muhtoj talabalar mavjud bo'lgan holda, oliy ta'lim muassasasining talabalar turar joylari maydonidan boshqa maqsadlarga foydalanish (ijaraga berish, boshqa kelishuvlar)ga ruxsat etilmaydi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'quv shaklida ta'lim olayotgan talabalarga o'qishdan bo'sh vaqtlarida oliy ta'lim muassasasining o'zida, shuningdek, boshqa joylarda ishlashga ruxsat etiladi.

12. O'zDJTUdan o'z hohishi yoki uzrli sabablarga ko'ra chetlashtirilgan talaba, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari asosida qayta o'qishga tiklanish huquqiga ega.

O'zDJTUNing talabalari belgilangan tartib va qoidalar asosida boshqa oliy ta'lim muassasalariga o'qishlarini ko'chirish (o'qishga qayta tiklanish) huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi hududida ta'lim faoliyatini olib borish uchun litsenziyaga ega bo'lmagan nodavlat oliy ta'lim muassasalari va boshqa mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarining filiallari (markazlar, bo'limlar, o'quv-maslahat punktlari va boshqalar)dan talabalarni O'zDJTUga o'qishini ko'chirish (o'qishga tiklash) mumkin emas.

Talabalar o'qishini bir oliy ta'lim muassasasidan boshqasiga ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

13. O'zDJTU talabalari oliy ta'limning ta'lim dasturlari va o'quv rejasida nazarda tutilgan bilimlarni egallashlari, topshiriqlarning barcha turlarini belgilangan muddatda bajarishlari zarur hamda O'zDJTUNing Ustaviga, Ichki tartib qoidalari va Talabalar turar joylari qoidalariga rioya etishlari shart.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, talabalarni o'qish vaqti hisobidan ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb etish man etiladi.

14. Ushbu Ustav va oliy ta'lim muassasasining Ichki tartib qoidalarida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgani taqdirda talabaga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari ko'riladi: hayfsan hamda talabalar safidan chetlatish.

Talaba oliy ta'lim muassasasidan quyidagi hollarda chetlashtirilishi mumkin:

a) o'z hohishiga binoan;

b) o'qishning boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishi munosabati bilan;

v) salomatligi tufayli (tibbiy komissiyasi ma'lumotnomasi asosida);

g) akademik o'zlashtira olmaganligi (qarzdorligi) uchun;

d) o'quv intizomini va oliy ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalarini buzganligi uchun;

e) bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;

j) o'qish uchun belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to'lov-kontrakt bo'yicha tahsil olayotganlar uchun);

z) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

i) vafot etganligi sababli.

Oliy ta'lim muassasasi ma'muriyati tashabbusi bilan talabalarni o'qishdan chetlashtirish talabalar kasaba uyushmasining yozma roziligini inobatga olgan holda (kasaba uyushmasi a'zosi bo'lgan talabalar uchun) amalga oshiriladi. SHuningdek, talaba mazkur Qoidalarning 14-bandi "d" kichik bandiga ko'ra chetlashtirilayotgan holda, ta'lim muassasasining "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkiloti bilan ham kelishilishi mumkin.

Intizomiy jazoga tortilgan talaba o'ziga qo'llanilgan jazo chorasining qonuniyligi va adolatliligi yuzasidan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda norozilik bildirishi mumkin.

Talabaga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazo yuzasidan ma'lumot uning shaxsiy yig'ma jildida saqlanadi.

Intizomiy jazolar talabalarining kasallik yoki ta'tilda bo'lgan vaqti hisobga olinmagan holda xatti - harakat aniqlangandan so'ng bir oydan va hatti - harakat sodir etilganidan so'ng olti oydan kechiktirilmay qo'llaniladi. Talabalar kasallik paytida, akademik ta'til yoki homiladorlik va tug'ish holati bilan bog'liq bo'lgan ta'til paytlarda talabalar safidan chetlashtirish mumkin emas.

Kasallik payti talaba (yoki uning ota-onasi) ariza va tegishli ma'lumotnomalar bilan, odatda, bir haftadan kechiktirilmasdan oliy ta'lim muassasasiga ma'lum qilinadi.

15. O'zDJTUda ta'limning ishlab chiqarishdan ajralgan yoki ajralmagan holdagi o'quv shakllarida muvaffaqiyatli o'qiyotgan talabalarga ularning ish joyidan O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutilgan imtiyozlar (maosh saqlangan yoki saqlanmagan holda qo'shimcha ta'til, oliy ta'lim muassasasi joylashgan manzilga borish va kelish uchun yo'l haqi va boshqalar) beriladi.

b) Tinglovchilar:

16. O'zDJTU qoshidagi CHet tillarini o'qitishning innovatsion metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-amaliy Markazida o'qiyotgan shaxslar tinglovchilar hisoblanadi. Tinglovchilarning maqomi ta'lim xizmatlarini olish qismi bo'yicha oliy ta'lim muassasasida muvofiq o'quv shaklida ta'lim olayotgan talabaning maqomi bilan tenglashtiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi, tinglovchilarni o'qitish shartlari va huquqlari qonun hujjatlariga muvofiq tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

v) *Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil izlanuvchilar:*

17. O'zDJTuning katta ilmiy xodim-izlanuvchilari va mustaqil izlanuvchilari bo'lib, muayyan yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan va tegishli ilmiy darajani olish uchun dissertatsiya tayyorlayotgan shaxslar hisoblanadi.

Fan doktori ilmiy darajasini olish maqsadida dissertatsiya tayyorlash uchun oliy ta'lim muassasasida katta ilmiy xodim-izlanuvchiligiga qabul qilingan shaxslar - katta ilmiy xodim-izlanuvchi hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasasiga (kafedraga) birlashtirilgan va fan doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlayotgan shaxs – mustaqil izlanuvchi hisoblanadi.

18. O'zDJTuning katta ilmiy xodim-izlanuvchiligiga oliy ma'lumotli mutaxassis diplomiga yoki magistr darajasiga ega bo'lgan yoki bularga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, Milliy xavfsizlik xizmatiga qarashli oliy ta'lim muassasalarining diplomiga hamda fan nomzodi darajasiga ega bo'lgan ilmiy izlanish olib borish qobiliyatini namoyon eta olgan shaxslar uch yillik muddatga qabul qilinadilar.

Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar o'qishni ishlab chiqarishdan ajralgan holda amalga oshiradilar. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda katta ilmiy xodim-izlanuvchilarning o'qishi uch yildan oshmasligi kerak. Magistrlik diplomini taqdim etishda, bakalavrluk diplomini ham ko'rsatish lozim.

O'zDJTuning katta ilmiy xodim-izlanuvchiligiga doktorlik dissertatsiyasiga asos bo'la oladigan salmoqli ilmiy yutuqlarga erishgan, fundamental tadqiqotlarni yuksak saviyada olib borish va muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy muammolarni hal qilishga qobiliyatli, fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'lgan iste'dodli ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar qabul qilinadi.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar institutidan tashqari mustaqil izlanuvchilik shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

Fan doktori ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasi ustida mustaqil izlanishlar olib borayotgan, fan va texnikaning dolzarb muammolari hamda nazariy masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlari yuzasidan salmoqli natijalarga erishgan, shuningdek tegishli fan va texnika sohasida chuqur bilimlarga ega bo'lgan fan

nomzodlari, katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar hamda mustaqil izlanuvchilar da'vogarlik qilishlari mumkin.

Katta ilmiy xodim-izlanuvchilikka qabul qilish, shuningdek oliy ta'lim muassasasiga mustaqil izlanuvchilarni biriktirish hamda katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustaqil izlanuvchilarga dissertatsiya ustida ishlayotganliklari uchun imtiyozlar berish tartibi, ularning huquq va majburiyatlarini belgilash ular haqidagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

g) universitetning professor-o'qituvchilari tarkibi, o'quv-yordamchi va ma'muriy-xo'jalik xodimlari (personali)

19. O'zDJTUda professor-o'qituvchilar tarkibi, ilmiy xodimlar, muhandislik-texnika, ma'muriy-xo'jalik, ishlab chiqarish, o'quv-yordamchi va boshqa xizmatchilar lavozimlari mavjud.

20. Professor-o'qituvchilar tarkibidagi lavozimlarni egallash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq tanlov asosida mehnat shartnomasi bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 9 mart F-137-sonli farmoyishiga muvofiq oliy ta'lim muassasasining prorektori rektor tavsiyasiga ko'ra Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni bilan kelishilgan holda tayinlanadi. Fakul'tet dekani Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda universitet rektorining buyrug'i bilan tayinlanadi.

21. O'zDJTuning professor-o'qituvchilar tarkibi va ilmiy xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

- belgilangan tartibda oliy ta'lim muassasasi va fakul'tet Kengashlariga saylash va saylanish;
- oliy ta'lim muassasasining faoliyatiga taalluqli masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;
- oliy ta'lim muassasasining axborot-resurs markazi, o'quv va ilmiy bo'linmalarining xizmatlaridan, shuningdek, ijtimoiy-maishiy, tibbiy va boshqa bo'limlar xizmatidan jamoa shartnomasiga muvofiq foydalanish;
- o'qitishning uslub va vositalarini tanlash, o'quv va ilmiy jarayonning yuqori sifatini ta'minlovchi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- oliy ta'lim muassasasi ma'muriyatining buyruq va farmoyishlari yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilish;
- qonunchilikda belgilangan tartibda tanlovlarda qatnashish, lavozimlarni egallash;

- o'zlari ishlayotgan kafedra, fakul'tetdan tashqari boshqa fakul'tet, kafedra, tashkilotlarda o'rindoshlik asosida ishlash (asosiy ish joyi bilan kelishilgan holda);
- xorijiy hamkasblarning sohaga doir ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlari bilan tanishish va ular bilan fikr almashish;
- o'z fani bo'yicha sifatli darsliklar va o'quv qo'llanmalar tayyorlash;
- nazariy bilimlarini amaliy tajribasini, ilmiy tadqiqot olib borish uslubini, pedagogik mahoratini takomillashtirib borish;
- talabalarning ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;
- grantlar, ilmiy loyihalar, xo'jalik shartnomalarida ishtirok etish;
- O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

22. O'zDJTuning **professor-o'qituvchilar tarkibi va ilmiy xodimlarining majburiyatlari** quyidagilardan iborat:

- ta'lim to'g'risidagi qonunchilik, mehnat va texnologiya intizomi, muassasa Ustavi, Ichki mehnat tartibi qoidalariga qat'iy rioya qilish; o'zining xizmat vazifalarini vijdonan bajarish va o'qituvchilik sha'niga dog' tushirmaslik;
- ish jarayonida muloqat qiladigan muassasa xodimlari, talabalari va boshqa shaxslar bilan hushfe'l munosabatda bo'lish;
- ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini bajarish, har yili tasdiqlanadigan shaxsiy reja asosida o'quv-uslubiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, xususan:

a) o'quv yuklamalari hajmini, o'quv-uslubiy, ilmiy o'quv-tashkiliy ishlarni tasdiqlangan shaxsiy reja asosida bajarish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ishtirok etish;

b) darslik, o'quv qo'llanma tayyorlash, o'quv abadiyotlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar yozish;

v) tarbiyaviy ishlarni olib borish, talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda bevosita ishtirok etish, shu jumladan darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan tadbirlarda;

d) Kengash tomonidan tasdiqlangan kafedra ilmiy mavzularida ishtirok etish;

e) o'z malakasini muntazam ravishda oshirish;

-mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalariga rioya qilish;

- muassasaning mol-mulkini avaylash, undan oqilona foydalanish;

- ish beruvchiga bevosita etkazilgan xaqiqiy moddiy zararni qoplash;

- muassasa jamoatchilik ishlarida qatnashish;

-pedagogik va ilmiy jarayonning samaradorligini ta'minlash;

- zamonaviy tsivilizatsiya va demokratiya sharoitida ta'lim oluvchilarning tanlagan yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha yuksak kasbiy tayyorgarlikni, mehnatga bo'lgan qobiliyatni shakllantirish;
- chet tili va axborot texnologiyalaridan savodxonligini oshirib borish;
- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish;
- «Ustoz-shogird» tizimida ishtirok etib, o'ziga biriktirilgan shogirdlar bilan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;
- o'zining odobi, madaniyati, ma'naviy saviyasi bilan o'rnak bo'lish;
- qiyinish madaniyatiga rioya etish;
- respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va jahonda ro'y berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lish;
- muassasa, fakul'tet, kafedra tomonidan tashkil etiladigan madaniy, ma'naviy, ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etish;
- o'zi o'qitadigan fan dasturini muntazam fan va texnika yutuqlari asosida boyitib borish;
- darslarni yuqori saviyada o'tish;
- fan yo'nalishiga tegishli yangi manbalarni topish va ular bilan talabalarni tanishtirib borish;
- har o'quv yili boshlangunga qadar o'zi o'qitadigan fan(lar)ning ishchi o'quv dasturi, kalendar' rejasi va reyting nazoratlari jadvalini ishlab chiqish va kafedra majlisida tasdiqlash;
- reyting tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish;
- talabalar bilimni xolisona baholash;
- yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash;
- ilmiy salohiyat va pedagogik mahoratini oshirish;
- talabalar ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;
- oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashish;

23. Universitet professor-o'qituvchi xodimlarining chet el xizmat safarlari amaldagi qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

24. O'zDJTU universitetning professor-o'qituvchilari tarkibi uch yilda kamida bir marotaba malakasini oshirish kafolatini ta'minlaydi.

25. O'zDJTuning ma'muriy-xo'jalik, muhandislik-texnika, o'quv-yordamchi va boshqa xizmat xodimlarining huquq va majburiyatlari oliy ta'lim muassasasining Ichki tartib-qoidalari va lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

IV. O'quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlar

26. O‘zDJTU quyidagi yo‘nalish va mutaxassisliklar bo‘yicha oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning asosiy ta’lim dasturlari, qo‘shimcha ta’lim (kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish)ning dasturlarini amalga oshiradi:

1) Oliy ta’lim (bakalavriat va magistratura):

a) ishlab chiqarishdan ajralgan holda bakalavriat bosqichida mavjud ta’lim yo‘nalishlari:

- filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili;
- filologiya va tillarni o‘qitish: nemis tili;
- filologiya va tillarni o‘qitish: frantsuz tili;
- filologiya va tillarni o‘qitish: ispan tili;
- filologiya va tillarni o‘qitish: rus tili;
- filologiya va tillarni o‘qitish: xitoy tili;
- ona tili va adabiyoti (rus tili va adabiyoti o‘zga tilli guruhlarda)
- xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)
- tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo‘yicha)
- jurnalistika (faoliyat turlari bo‘yicha)

b) magistratura bosqichida mavjud mutaxassisliklar nomi:

- adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti)
- lingvistika (tillar bo‘yicha):
- ingliz tili
 - frantsuz tili
 - nemis tili
 - rus tili
 - ispan tili
 - xitoy tili
 - tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo‘yicha)
 - xalqaro jurnalistika (faoliyat turlari bo‘yicha)
 - jurnalistika (faoliyat turlari bo‘yicha)

27. O‘zDJTU ta’limning asosiy ta’lim dasturlarini ikki bosqichda amalga oshiradi: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat - ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, o‘qish muddati 4 yildan kam bo‘lmagan tayanch oliy ta’limdir.

Bakalavr dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlari bo‘yicha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha «bakalavr» darajasi beriladi hamda davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Magistratura - yo'nalishning muayyan mutaxassisligi bo'yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, bakalavriat negizida, o'qish muddati 2 yildan kam bo'lmagan oliy ta'limdir.

Magistr dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlari bo'yicha tayyorlangan muayyan mutaxassislik bo'yicha «magistr» darajasi beriladi va davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Bakalavr va magistrlik davlat namunasidagi diplom uning egalariga kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki tanlangan ta'lim yo'nalishiga va mutaxassisligiga muvofiq ta'lim muassasalarining navbatdagi bosqichlarida o'qishni davom ettirish huquqini beradi.

Oliy ta'limning turli bosqichida asosiy ta'lim dasturlari bo'yicha dastlabki ta'lim olish, ikkinchi oliy ta'lim olish sifatida qaralmaydi.

28. O'zDJTUda ta'lim jarayonini tashkil etish, tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan ishlab chiqiladigan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadigan o'quv rejalari va fanlarning dasturlari, oliy ta'lim muassasasi rektori (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) tomonidan tasdiqlangan yillik kalendar' o'quv jadvali hamda mashg'ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

Ta'lim jarayonini maqsadli yo'naltirish yo'li bilan tashkil etish, ya'ni ta'lim shakllari, uslub va vositalarni tanlash yo'li bilan oliy ta'lim muassasasi talabalariga oliy ta'limning asosiy kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun zaruriy sharoitlarini yaratib berilishi lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonining birligi davlat ta'lim standartlari bilan ta'minlanadi. Oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlari kafedralari, ma'naviy-ma'rifiy va sport bo'g'inlariga, talabalar va boshqa jamoatchilik tashkilotlariga, rahbarlik qilish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirib borish ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha prorektor tomonidan amalga oshiriladi.

29. O'zDJTUda o'quv mashg'ulotlarining quyidagi asosiy turlari belgilangan: ma'ruza, konsul'tatsiya, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, yakka mashg'ulot (amaliy ijrochilik bilan bog'liq bo'lgan san'at yo'nalishlarida), nazorat ishi, kollokvium, mustaqil ish, amaliyot, kurs loyihasi (kurs ishi), bakalavrluk bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasi.

Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 45 (yoki 40 daqiqalik tanaffussiz qo'shma ma'ruza) daqiqalik akademik soat belgilangan. O'quv mashg'ulotlari orasidagi tanaffus kamida 10 daqiqa bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya olib boriladigan tillar:
o'zbek hamda rus, ingliz, ispan, nemis, frantsuz, xitoy va boshqa sharq tillari hisoblanadi.

30 O‘zDJTUda kadrlar tayyorlash ishlab chiqarishdan ajralgan holda olib boriladi.

Oliy ta‘limning asosiy kasbiy ta‘lim dasturi doirasida ta‘lim olishning barcha shakllari uchun o‘rnatilgan tartibda ishlab chiqilgan va “Uzstandart” agentligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan davlat ta‘lim standarti qo‘llaniladi.

31.O‘zDJTUda o‘quv yili ikki semestrda bo‘linadi va uning xar birida talabalarning o‘zlashtirishi reyting nazorati shaklida olib boriladi.

Oliy ta‘limning ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirish, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Oliy ta‘lim muassasalari talabalari bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq tartibga solinadi, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi Nizom”ga asosan bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyasi bilan tugallanadi.

32. O‘zDJTUda ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari, ta‘limni individuallashtirish va mustaqil ta‘lim olish vositalarini, modul tizimi hamda masofaviy ta‘lim berishni qo‘llash hisobiga mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshiriladi.

2) Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim:

Davlat akreditatsiyasidan o‘tgan quyidagi ixtisosliklar bo‘yicha katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustaqil-izlanuvchilar instituti ixtisoslik shifrlari:

- 10.00.03. Til nazariyasi. Amaliy va komp’yuter lingvistikasi
- 10.00.05. Evropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 10.00.07. Qiyosiy-tarixiy, tipologik va chog‘ishtirma tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik
- 10.00.08. Adabiyot nazariyasi
- 10.00.10. Jurnalistika
- 13.00.01. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Ta‘limda menejment
- 13.00.05. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi

33. O‘zDJTUda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2012 yil 28 dekabrda 365-son qaroriga 2-ilova “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim to‘g‘risida Nizom”ga muvofiq tegishli vazirlik (idora) ruxsati asosida mustaqil-izlanuvchilar va katta ilmiy xodim-izlanuvchilar orqali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, shuningdek fan doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar tayyorlash va himoya qilish uchun oliy ta‘lim muassasasiga izlanuvchilarni birlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limga oid munosabatlar o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan va Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Katta ilmiy xodim-izlanuvchi to‘g‘risidagi Nizom” bilan tartibga solinadi.

O‘zDJTUda (ixtisosliklarning nomlari) ixtisosliklar bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasini berish yuzasidan ixtisoslashgan kengash(lar) faoliyat ko‘rsatadi.

34. O‘zDJTU O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “CHet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan CHet tillarini o‘qitishning innovatsion metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-amaliy Markazida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarini tashkil etadi.

35. O‘zDJTU kengashning tematik rejalar bo‘yicha bajariladigan ishlarning sifati hamda mehnat xavfsizligini ta‘minlagan holda talabalar va katta ilmiy xodim-izlanuvchilarni keng jalb etib, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlarni olib boradi.

Ilmiy tadqiqotlar quyidagi mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi:

- fan, texnika va madaniyatning muhim yo‘nalishlari bo‘yicha fundamental, amaliy hamda innovatsion tadqiqotlarni bajarish uchun ajratiladigan davlat byudjeti mablag‘lari;

- shartnoma asosida sohaviy vazirliklar, idoralar, korxonalar, birlashmalar va boshqalar, shu jumladan xorijiy tashkilotlar mablag‘lari.

V. Universitetning tarkibi

36. O‘zDJTUNing tarkibiga quyidagilar kiradi:

a) **fakul’tetlar:** ingliz tili 1-fakul’teti; ingliz tili 2-fakul’teti; ingliz tili 3-fakul’teti; roman-german filologiyasi fakul’teti, tarjima nazariyasi va amaliyoti fakul’teti, rus filologiyasi fakul’teti, xalqaro jurnalistika fakul’teti.

b) **kafedralar:**

- **ingliz tili 1- fakul’teti qoshida:** professional leksika kafedrasini; ingliz tili fonetikasi va fonologiyasi kafedrasini; ingliz tili grammatikasi va tarixi kafedrasini;

- **ingliz tili 2- fakul’teti qoshida:** ingliz tili leksikologiyasi kafedrasini; ingliz tili stilistikasi kafedrasini; ingliz tili amaliy fanlar kafedrasini;

- **ingliz tili 3- fakul’teti qoshida:** lingvistik va ingliz adabiyoti kafedrasini; ingliz tili nazariy fanlar kafedrasini; ingliz tilini integrallash holda o‘qitish kafedrasini;

- **roman-german filologiyasi fakul’teti qoshida:** nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasini; frantsuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasini; ispan tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasini;

- **rus filologiyasi fakul’teti qoshida:** rus tili va adabiyoti kafedrasini;

- **tarjima nazariyasi va amaliyoti fakul’teti qoshida:** tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyoti kafedrasini; sharq tillari kafedrasini; xitoy tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasini; ikkinchi chet tilini intensiv o‘qitish kafedrasini;

- **xalqaro jurnalistika fakul'teti qoshida:** xalqaro jurnalistika nazariyasi va amaliyoti kafedrası; audiovizual jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya kafedrası;

- **fakul'tetlararo kafedralar:** ijtimoiy fanlar kafedrası; O'zbekiston tarixi kafedrası; jismoniy madaniyat va sport kafedrası; tabiiy fanlar kafedrası; pedagogika va psixologiya kafedrası; informatika va axborot texnologiyalari kafedrası; zamonaviy pedagogik texnologiyalar kafedrası; jahon adabiyoti va adabiyotshunoslik kafedrası; umumiy tilshunoslik kafedrası; o'zbek tili kafedrası.

v) **bo'limlar:** rektorat; magistratura bo'limi; ilm va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi; tahrir-nashriyot bo'limi; «Ma'naviyat va ma'rifat» va iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo'limi; iqtisod-moliya bo'limi; o'qitishning texnik vositalari bilan ta'minlash bo'limi; fuqaro mudofaasi va mehnat muhofazasi bo'limi; texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi; monitoring va ichki nazorat bo'limi; marketing bo'limi; xalqaro aloqalar bo'lim; buxgalteriya; xodimlar bo'limi; birinchi bo'lim; ikkinchi bo'lim; devonxona va arxiv; avtomatlashtirilgan telefon stantsiyasi (ATS); o'quv-yordamchi xodimlar; bosmaxona; tarjimonlar tayyorlash kurslari.

g) **boshqarma:** o'quv-uslubiy.

d) **markazlar:** CHet tillarini o'qitishning innovatsion metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-amaliy Markazi; axborot-resurs Markazi; axborot texnologiyalari Markazi; respublika til o'rgatish Markazi.

O'zDJTU qoshida quyidagi akademik litseylar ochilgan:

- 1-sonli Uchtepa akademik litseyi. Manzili: Uchtepa tumani, M.SHayxzoda ko'chasi, 11-mavze, 65a-uy. Ta'lim yo'nalishlari: xorijiy filologiya.
- 2-sonli akademik litsey. Manzili: Yakkasaroy tumani, Bobir ko'chasi, 55 uy. Ta'lim yo'nalishlari: xorijiy filologiya; ijtimoiy-gumanitar fanlar; aniq fanlar.
- 3-sonli akademik litsey. Manzili: Yakkasaroy tumani, S.Miraxmedov ko'chasi, 62 uy. Ta'lim yo'nalishlari: xorijiy filologiya; aniq fanlar.

VI. Oliy ta'lim muassasasini boshqarish

37. O'zDJTUni boshqarish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda ushbu Ustavga muvofiq yakka rahbarlik va oliy ta'lim muassasasining kengashi, Vasiylar kengashi orqali jamoatchilik boshqaruvini uyg'unlashtirish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

38. O'zDJTUni bevosita boshqarish O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 1992 yil 9 mart 137-f farmoyishida belgilangan tartib asosida tayinlanadigan rektor tomonidan amalga oshiriladi.

Rektor oliy ta'lim muassasasi faoliyatiga, shuningdek, oliy ta'lim muassasasining Ichki tartib qoidalari, Oliy ta'lim to'g'risidagi Nizom hamda mazkur Ustavda belgilangan majburiyatlar uchun to'la mas'uldir.

Rektor O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq oliy ta'lim muassasasi nomidan ish olib boradi, barcha idoralar, muassasalar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi, oliy ta'lim muassasasining mol-mulkiga mas'ullik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi, bank muassasalarida oliy ta'lim muassasasining hisob raqamlarini ochadi, moliyaviy mablag'lardan o'rnatilgan tartibda foydalanish bo'yicha farmoyishlar beradi.

Rektor oliy ta'lim muassasasining vakolati doirasida:

- oliy ta'lim muassasasining barcha xodimlari, talabalari va boshqa ta'lim olayotganlar uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va topshiriqlar beradi;
- bo'ysunuvchi vazirlik (idora) bilan kelishilgan holda fakul'tet dekanlari va bosh buxgalterni lavozimiga tayinlaydi hamda lavozimidan ozod qiladi;
- oliy ta'lim muassasasi prorektorlari lavozimiga nomzodlarni tavsiya etadi va prorektorlar, dekanlarning muayyan vazifalari hamda mas'uliyatlarini belgilaydi;
- oliy ta'lim muassasasi xodimlari va xizmatchilarini, shuningdek ilmiy-pedagogik xodimlarini O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda ishga olish va bo'shatishni amalga oshiradi;
- oliy ta'lim muassasasi tarkibiga kirgan ilmiy tadqiqot, tajriba-eksperimental hamda boshqa tashkilot va bo'linmalarning vazifalarini belgilaydi va ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;
- oliy ta'lim muassasasi xodimlarining lavozim maoshlariga har oylik ustamalar va qo'shimchalarni belgilaydi;
- kasaba uyushma qo'mitasi yoki oliy ta'lim muassasasining boshqa vakolatli organi bilan kelishgan holda Ichki tartib qoidalarini tasdiqlaydi;
- oliy ta'lim muassasasining amaldagi qonun xujjatlari yoki Vazirlikning normativ-huquqiy xujjatlari buzilgan holda chiqarilgan buyruqlarini bekor qiladi;
- oliy ta'lim muassasasida Namunaviy shtat birliklariga muvofiq ajratilgan mablag'lar hamda ish haqi fondi, tasdiqlangan oliy ta'lim muassasasi xodimlarining soni va lavozim maoshlari, tarif setkasi doirasida oliy ta'lim muassasasi professor - o'qituvchilari tarkibi va oliy ta'lim muassasasi xodimlarining shtat birligini tasdiqlaydi hamda lavozim maoshlarini belgilaydi;
- oliy ta'lim muassasasi Kengashining tavsiyasiga ko'ra o'rnatilgan tartibda tegishli normativ-huquqiy xujjatlarga muvofiq fakul'tetlarni, kafedralarni ochish yoki yopish qarorlarini tasdiqlaydi.

“Oliy ta'lim muassasasining kafedra to'g'risidagi nizom” talablaridan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasasi Kengashining tavsiyasiga ko'ra kafedralar tashkil etiladi yoki tugatiladi.

Oliy ta'lim muassasasi rektoriga o'zi ishlayotgan oliy ta'lim muassasasida va undan tashqarida haq to'lanadigan boshqa rahbarlik lavozimida (ilmiy va ilmiy - metodik rahbarlikdan tashqari) o'rindoshlik bo'yicha ishlashga ruxsat etilmaydi. Rektor o'z vazifalarini o'rindoshlik bo'yicha bajarishi mumkin emas.

39. "Oliy ta'lim to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq O'zDJTUda oliy ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy masalalarini ko'rish uchun Kengash tashkil etiladi. Kengash tarkibiga rektor kiradi va Kengash raisi hisoblanadi, prorektorlar, fakul'tetlar dekanlari hamda mutaxassislar tayyorlovchi kafedralar mudirlari, shuningdek, talabalar va oliy ta'lim muassasasi xodimlari kasaba uyushmasi kengashi vakillari kiradi. Kengashning boshqa a'zolari umumiy majlisda (konferentsiyada) yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Professor-o'qituvchilar tarkibidan Kengashga saylanadiganlar soni rektor buyrug'i bilan belgilanadi.

Kengashning vakolati, uni saylash va faoliyat yuritish tartibi ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasasining Kengashi to'g'risidagi Nizom" bilan belgilanadi.

40. O'zDJTUda Vasiylar kengashi oliy ta'lim muassasasini boshqaruvchi jamoatchilik organi tashkil etiladi va uning tarkibiga muassis-vazirliklar, mahalliy hokimiyat, ishbilarmon doiralar, jamoatchilik tashkilotlari, jamg'arma va vasiylar, boshqa ta'lim muassasalarining vakillari kiradi.

Vasiylar kengashining tarkibi, vakolatlari, shakllantirish tarkibi va faoliyati "Vasiylar kengashi to'g'risidagi Nizom" bilan belgilanadi.

41. O'zDJTUda kasaba uyushmalari va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Talabalar va xodimlar manfaatlarini himoyalashni ta'lim va fan kasaba uyushmalari hamda ularning oliy ta'lim muassasasida saylangan organlari amalga oshiradi. Talabalar va xodimlarni vakolat organlarining huquqlari va ularga nisbatan oliy ta'lim muassasasi ma'muriyatining majburiyatlari lokal hujjatlarda belgilanadi.

Amaldagi nizomlarga muvofiq O'zDJTUda ilmiy va ixtiyoriy jamiyatlar, ilmiy-uslubiy, ilmiy-texnik kengashlar va komissiyalar, yosh olimlar kengashi va boshqalar tashkil etilishi mumkin.

Rektorat va Kengash o'z faoliyatida oliy ta'lim muassasasi jamoatchilik tashkilotlarining tavsiyalarini ko'rib chiqadi va o'z faoliyatlarida ularni hisobga oladi.

42. O'zDJTuning fakul'tetini vazirlik bilan kelishilgan holda rektor tomonidan tayinlanadigan dekan boshqaradi.

Fakul'tet dekani o'z faoliyatida "Oliy ta'lim muassasasining fakul'teti to'g'risidagi Nizom"ga amal qiladi.

"Oliy ta'lim muassasasining fakul'teti to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq fakul'tetda ilmiy kengash tashkil etilishi mumkin.

Kengashning tarkibi, vakolatlari, shakllantirish va faoliyatining tartibi “Oliy ta’lim muassasasi fakul’tetining Kengashi to’g’risidagi Nizom” bilan belgilanadi.

Kafedra faoliyatiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizomga muvofiq tanlov asosida oliy ta’lim muassasasining Kengashi tomonidan saylanadigan mudir rahbarlik qiladi.

Kafedra mudirining vakolatlari va kafedra faoliyatining tartibi “Oliy ta’lim muassasasining kafedra to’g’risidagi nizom” bilan belgilanadi.

VII. Moliya-xo‘jalik faoliyati va moddiy-texnik baza

43. O‘zDJTUga ushbu Ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida operativ boshqarish huquqi bilan davlat (ta’rischi) tomonidan binolar, inshootlar, mulkiy majmualar, oliy ta’lim muassasasining pasportiga muvofiq asbob-uskunalar, shuningdek iste’mol, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsadlar uchun zarur bo‘lgan mulklar biriktirilgan.

O‘zDJTU faqat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladigan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan ob’ektlar qatoriga kiritilgan.

O‘zDJTUga ajratilgan yer uchastkalari oliy ta’lim muassasasiga muddatsiz tekin foydalanish uchun biriktirilgan.

44. O‘zDJTU jismoniy va yuridik shaxslardan sovg‘a, hadya yoki vasiyat bo‘yicha berilgan pul mablag‘lari, mol-mulk va boshqa mulkiy ob’ektlarga, oliy ta’lim muassasasi faoliyatining samarasi hisoblangan intellektual va ijodiy mahsulotlarga, shuningdek o‘z faoliyati orqali oladigan daromadlar va bu daromadlar hisobidan sotib olinadigan mulkiy ob’ektlarga egalik qilish huquqi berilgan.

45. O‘zDJTU mol-mulkni ijaraga oluvchi va mol-mulkni ijaraga beruvchi sifatida faoliyat ko‘rsatish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to’g’risida Nizom”ga muvofiq oliy ta’lim muassasasi o‘ziga biriktirilgan ijaraga berilishi qonun xujjatlariga zid bo‘lmagan binolar, inshootlar va ularning qismlari, asbob-uskunalar, transport vositalari shaklidagi davlat mulki va boshqa mol-mulklarni ilmiy kengashning roziligi bilan tasarruf etish huquqsiz, belgilangan narxlar bo‘yicha ijaraga berishni amalga oshiradi.

Ijara haqi sifatida olingan mablag‘lar ta’lim jarayonini ta’minlash va uni rivojlantirish uchun foydalaniladi.

46. O‘zDJTuning ta’lim faoliyatini moliyaviy ta’minlash davlat grantlari asosida mutaxassislar tayarlash uchun ajratilgan byudjet mablag‘lari, davlat tomonidan belgilangan normativlardan kelib chiqqan holda qayta tayyorlash va

xodimlarning malakasini oshirish hisobiga ajratilgan mablag'lar, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar, jumladan talabalar va tinglovchilarni o'qitish uchun belgilangan tartibda olingan to'lov-shartnoma asosidagi mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

47. O'zDJTU oliy ta'lim muassasasining asosiy faoliyatiga zarar etmaydigan tartibda ta'lim va boshqa sohalarda pullik xizmat faoliyatini amalga oshirish mumkin. Oliy ta'lim muassasasi shug'ullanadigan tadbirkorlik faoliyati uning ustavida belgilangan vazifalarga mos kelishi kerak.

Oliy ta'lim muassasasi o'z mulki bilan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarning ustav jamg'armasida qatnashish, pullik ta'lim xizmatlari, konsul'tatsiyalar va boshqa xizmatlar uchun narxlarni belgilash, soliq va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiy to'lovlardan so'ng qolgan daromadni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasasining pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatishni byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidagi ta'lim faoliyati doirasida va uning o'rniga amalga oshirilishi mumkin emas.

Oliy ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda mazkur ustavga zid bo'lmagan shartnomalarni tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash bo'yicha masalalarni mustaqil hal qiladi.

48. O'zDJTUda lavozim maoshlari mehnat sharnomasi (bitimi) tuzilayotganda "Oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida Nizom" va mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasiga muvofiq belgilanadi. Oliy ta'lim muassasasi xodimiga lavozim maoshi (stavka), o'z funksional vazifalarni hamda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarganligi uchun to'lanadi. Qo'shimcha maosh, ustama va boshqa moddiy rag'batlantirish tadbirlarining hajmini oliy ta'lim muassasasi mustaqil, ish haqi fondi doirasida qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va hajmda belgilaydi.

Belgilangan maoshlar attestatsiya natijasiga ko'ra faqat uni oshirish maqsadida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

49. O'zDJTU oliy ta'lim muassasasida tashkil etilgan jamoat tashkilotlariga faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'lgan xonalarni ajratadi va ularni tozalashni tashkil etadi.

Oliy ta'lim muassasasi qoshidagi tibbiy - sanitar muassasasiga, shuningdek, uning hududida joylashgan yoki oliy ta'lim muassasasining balansida bo'lgan hamda talaba, tinglovchi va xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi oshxona va boshqa umumiy ovqatlanish muassasalariga isitish, yoritish va suv ta'minoti bilan ta'minlangan xonalar ajratiladi.

Oliy ta'lim muassasasining tegishli binolarini ta'mirlash, rekonstruksiya qilish yoki yangilarini qurish, ularning moliyaviy ta'minoti qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

VIII. Xalqaro hamkorlik

50. O'zDJTU O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 33-moddasiga muvofiq ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

CHet el fuqarolarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik xodimlarining O'zbekiston Respublikasi xududidan tashqarida o'qituvchilik va ilmiy-tadqiqotchilik ishlari davlatlararo organining xorijiy davlatlarning ta'limni boshqarish bo'yicha tegishli organlari orasidagi shartnomalar, shuningdek qonunchilikka muvofiq chet el fuqarolari va xorijiy yuridik shaxslar bilan bevosita tuzgan shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

51. O'zDJTU quyidagi huquqlarga ega:

- xalqaro nodavlat tashkilotlarga kirish;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari deb qaralishi mumkin bo'lmagan, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikdagi faoliyat to'g'risida belgilangan tartib asosida shartnomalar tuzish;
- xorijiy sheriklar ishtirokida oliy ta'lim muassasasining tarkibiy bo'linmalari (markazlar, laboratoriyalar, texnik saroylar va boshqa bo'linmalar)ni qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda tashkil etish.

52. O'zDJTU O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq ushbu Ustavda nazarda tutilgan va "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bajarishga, shuningdek xalqaro aloqalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

53. O'zDJTuning tashqi iqtisodiy faoliyatidan tushgan valyuta, moddiy tushumlari qonunchilikka binoan uning Ustavida belgilangan faoliyatini ta'minlash uchun ishlatiladi.

IX. YAKUNIY QOIDALAR

54. O'zDJTU O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib asosida qayta tashkil qilinishi yoki tugatilishi mumkin.

55. Mazkur Ustav O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlanib, o‘rnatilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi va kuchga kiritiladi.

Universitet Ustaviga o‘zgartirish yoki qo‘shimchalar kiritish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ustav O‘zDJTU Kengashining
2013 yil 30 maydagi yig‘ilishida
qabul qilingan (10-son bayonnoma)